GeoGebra yordamida ko'pyoqlilarni o'qitish metodikasi.....	672
<b>Pirlepesov Umrbek Baxtiyor o'g'li</b>	
Boshlang'ich tayyorgarlik bosqichidagi dzyudochilarning umumiy jismoniy tayyorgarligini rivojlantirish usullari .....	675
<b>Jumanova Iroda Shokirjon qizi</b>	
O'zbekistonda nogironligi bo'lgan shaxslarni ijtimoiy integratsiya va tibbiy korreksiyalash istiqbollari .....	678
<b>Jurayeva Mushtariy Muxaydinovna</b>	



## O'ZBEKISTONDA NOGIRONLIGI BO'LGAN SHAXSLARNI IJTIMOIY INTEGRATSIYA VA TIBBIY KORREKSIYALASH ISTIQBOLLARI

**Jurayeva Mushtariy Muxaydinovna**

Toshkent Kimyo xalqaro universiteti

Namangan filiali "Pedagogika va psixologiya"

kafedrasi katta o'qituvchisi

**ORCID: 0009-0007-8495-7385**

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada O'zbekistonda nogironligi bo'lgan shaxslarni ijtimoiy integratsiya qilish va tibbiy korreksiylashning zamonaviy holati hamda rivojlanish istiqbollari ilmiy-nazariy va amaliy jihatdan tahlil qilingan. Tadqiqotda amaldagi davlat dasturlari, normativ-huquqiy hujjatlar va sohada amalga oshirilayotgan islohotlar tizimli ravishda ko'rib chiqilgan.

Ijtimoiy pedagogika nuqtai nazaridan nogironligi bo'lgan shaxslarning jamiyat hayotiga muvaffaqiyatli moslashuvi va faol ishtirokini ta'minlovchi omillar, xususan, inklyuziv ta'lim, kasbiy reabilitatsiya, tibbiy-ijtimoiy xizmatlar hamda ijtimoiy himoya tizimlarining o'rni yoritilgan.

Shuningdek, xorijiy mamlakatlarning ilg'or tajribalari bilan qiyosiy tahlil o'tkazilib, samarali amaliy mexanizmlar aniqlangan. Statistik ma'lumotlar va tahliliy natijalar asosida mavjud muammolar ochib berilib, ularni bartaraf etishga qaratilgan ilmiy asoslangan taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan. Tadqiqot natijalari nogironligi bo'lgan shaxslarning hayot sifatini oshirish va davlat siyosatini takomillashtirishda amaliy ahamiyat kasb etadi.

**Kalit so'zlar:** nogironligi bo'lgan shaxslar, ijtimoiy integratsiya, tibbiy korreksiylash, inklyuziv ta'lim, kasbiy reabilitatsiya, ijtimoiy pedagogika, ijtimoiy himoya, davlat siyosati, statistik tahlil.

**Abstract:** This article provides a comprehensive analysis of the current state and future prospects of social integration and medical correction for persons with disabilities in Uzbekistan. The study systematically examines existing state programs, the legal and regulatory framework, and ongoing reforms in this field.

From the perspective of social pedagogy, special attention is given to the role of inclusive education, vocational rehabilitation, medical and social services, and social protection systems in promoting successful adaptation and active participation of persons with disabilities in society. In addition, a comparative analysis of advanced international practices is conducted to identify effective mechanisms for social inclusion and rehabilitation.

Based on statistical data and analytical findings, the study identifies existing challenges and develops scientifically grounded recommendations for their resolution. The results of the research have practical significance for improving public policy and enhancing the quality of life of persons with disabilities.

**Key words:** persons with disabilities, social integration, medical correction, inclusive education, vocational rehabilitation, social pedagogy, social protection, public policy, statistical analysis.

**Аннотация:** В данной статье проведён комплексный анализ современного состояния и перспектив социальной интеграции и медицинской коррекции лиц с инвалидностью в Узбекистане. В исследовании системно рассмотрены действующие государственные программы, нормативно-правовая база и реформы, реализуемые в данной сфере.

С позиций социальной педагогики раскрыта роль инклюзивного образования, профессиональной реабилитации, медико-социальных услуг и системы социальной защиты в процессе успешной адаптации и полноценного участия лиц с инвалидностью в общественной жизни. Также проведён сравнительный анализ передового зарубежного опыта, позволивший определить наиболее эффективные практические механизмы.

На основе статистических данных и аналитических материалов выявлены существующие проблемы и разработаны научно обоснованные предложения и рекомендации по их решению. Полученные результаты имеют практическую значимость для совершенствования государственной политики и повышения качества жизни лиц с инвалидностью.

**Ключевые слова:** лица с инвалидностью, социальная интеграция, медицинская коррекция, инклюзивное образование, профессиональная реабилитация, социальная педагогика, социальная защита, государственная политика, статистический анализ.



## KIRISH

O'zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishgan dastlabki yillardanoq ijtimoiy yo'naltirilgan davlat siyosatini o'zining asosiy ustuvor yo'nalishi sifatida belgilab oldi. "Inson – jamiyatning eng oliy qadriyati" tamoyili mamlakat konstitutsiyaviy tuzumining negiziga joylashtirilgan bo'lib, ayniqsa, ijtimoiy himoyaga muhtoj aholi qatlamlari, jumladan, nogironligi bo'lgan shaxslarni qo'llab-quvvatlash davlat siyosatining muhim tarkibiy qismiga aylandi.

So'nggi yillarda O'zbekistonda nogironligi bo'lgan shaxslarning huquq va imkoniyatlarini kengaytirish, ularning jamiyat hayotiga faol integratsiyasini ta'minlash borasida tub islohotlar amalga oshirilmoqda. Xususan, 2020-yil 15-oktyabrda "Nogironligi bo'lgan shaxslarning huquqlari to'g'risida"gi O'RBQ-641-sonli Qonunning qabul qilinishi [1], 2021-yil 6-mayda esa Birlashgan Millatlar Tashkilotining Nogironligi bo'lgan shaxslar huquqlari to'g'risidagi konvensiyasiga qo'shilganligi [2] ushbu sohada muhim huquqiy asoslarni mustahkamladi.

Biroq amaliyot shuni ko'rsatadiki, qonunchilik bazasining yaratilganligi mavjud muammolarni to'liq hal etish uchun yetarli emas. Ijtimoiy integratsiya va tibbiy korreksiyalash jarayonlari hali ham ilmiy va amaliy jihatdan to'liq yechimini topmagan masalalardan biri bo'lib qolmoqda. Jamiyatda nogironligi bo'lgan shaxslarga nisbatan stereotip va noto'g'ri qarashlarning saqlanib qolganligi, inklyuziv ta'lim tizimining yetarli darajada rivojlanmaganligi, rehabilitatsiya xizmatlarining qamrovi hamda sifati bilan bog'liq muammolarning mavjudligi ushbu mavzuning dolzarbligini yanada oshirmoqda.

Maqolaning predmeti – nogironligi bo'lgan shaxslarni ijtimoiy-pedagogik va tibbiy jihatdan qo'llab-quvvatlash tizimining holati, uning samaradorligi hamda rivojlanish istiqbollari. Obyekti – O'zbekistonda yashovchi nogironligi bo'lgan shaxslar (bolalar va kattalar) hamda ularni qo'llab-quvvatlovchi davlat va nodavlat tuzilmalardir. Maqsad – sohada mavjud yutuq va kamchiliklarni aniqlash, xorijiy tajribani o'rganish hamda istiqboldagi rivojlanish yo'nalishlarini ilmiy asoslangan holda belgilashdan iborat.

Nogironligi bo'lgan shaxslarni ijtimoiy himoya qilish va ularni jamiyatga integratsiyalash muammolari turli davrlarda ko'plab mahalliy va xorijiy olimlarning tadqiqot obyekti bo'lib kelgan.

## MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Xalqaro tajribaga nazar tashlaydigan bo'lsak, rivojlangan mamlakatlarda nogironligi bo'lgan shaxslarga nisbatan siyosat 1960–1970-yillardagi "medikal model"dan 1980-yillardan boshlab "ijtimoiy model"ga o'tgan. "Medikal model"da nogironlik shaxsning tibbiy nuqsoni sifatida qaralgan bo'lsa, "ijtimoiy model"da asosiy e'tibor jamiyatning nogironligi bo'lgan shaxslarni qabul qilishga tayyor emasligi, mavjud to'siqlar va cheklovlarga qaratiladi [3].

Skandinaviya mamlakatlarida (Norvegiya, Shvetsiya, Daniya) nogironligi bo'lgan shaxslar uchun "hayot sifatini ta'minlash" tamoyili asos qilib olingan bo'lib, ularga har tomonlama davlat yordami ko'rsatiladi. AQShda "Americans with Disabilities Act" (1990) nogironligi bo'lgan shaxslarning mehnat, ta'lim, transport va boshqa sohalarda kamsitilishini taqiqlaydi. Germaniyada esa nogironligi bo'lgan shaxslarni rehabilitatsiya qilish tizimi "biopsixosozial yondashuv"ga asoslangan bo'lib, tibbiy, psixologik, pedagogik va ijtimoiy jihatlarni uyg'unlash-tiradi [4].

Yaponiya tajribasi alohida e'tiborga loyiq. Ushbu mamlakatda nogironligi bo'lgan shaxslarni qo'llab-quvvatlash bo'yicha "Sog'liqni saqlash va farovonlikni qo'llab-quvvatlash to'g'risida"gi qonun doirasida har bir nogironligi bo'lgan shaxs uchun individual rehabilitatsiya rejasi ishlab chiqiladi va uning bajarilishi doimiy nazorat qilinadi [5].

O'zbekistonda nogironligi bo'lgan shaxslar muammolari turli mutaxassislar - huquqshunolar, pedagoglar, sotsiologlar, psixologlar va tibbiyot xodimlari tomonidan o'rganilgan. Ismoilov B.S. o'zining "Nogironligi bo'lgan shaxslar davlat va jamiyat e'tiborida" nomli asarida [6] O'zbekistonda nogironligi bo'lgan shaxslarning huquqiy holati, ularni rehabilitatsiya va abilitatsiya qilish masalalari, jamiyatning ularga munosabati kabi jihatlarni atroflicha yoritgan. Muallif nogironligi bo'lgan shaxslarga nisbatan jamiyatda shakllangan noto'g'ri qarashlarni o'zgartirish, ularning imkoniyatlarini kengaytirish zarurligini ta'kidlaydi.

Xaydarov F.I. o'z tadqiqotlarida [7] inklyuziv ta'limning nazariy va amaliy asoslarini ishlab chiqib, umumta'lim maktablarida nogironligi bo'lgan bolalar bilan ishlashning pedagogik texnologiyalarini taklif etgan. Uning fikricha, inklyuziv ta'limning muvaffaqiyati nafaqat moddiy-texnik bazaga, balki pedagogik kadrlarning tayyorlik darajasi va jamiyatning psixologik tayyorligiga ham bog'liq.

Nuraliyeva M.E. va boshqalar (2025) tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda [8] O'zbekistonda nogironligi bo'lgan bolalarga ijtimoiy yordam ko'rsatishni tashkil etish istiqbollari ko'rib chiqilgan. Mualliflar mamlakatimizda bu borada bir qator ijobiy o'zgarishlar ro'y berayotganligini, biroq hali hal etilishi lozim bo'lgan muammolar ham talaygina ekanligini ta'kidlaganlar.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 15-oktyabrdagi "Nogironligi bo'lgan shaxslarni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4860-sonli qarori [9], shuningdek, 2022-yil 18-fevraldagi "Nogironligi bo'lgan shaxslarni ijtimoiy himoya qilish va ular uchun qulay shart-sharoitlar yaratish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-135-sonli qarori [10] ushbu sohadagi davlat siyosatining huquqiy asoslarini yanada mustahkamladi.

Shu bilan birga, mavjud adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, nogironligi bo'lgan shaxslarni ijtimoiy integratsiyalash va tibbiy korreksiyalashning o'zaro bog'liq jihatlari, ayniqsa, ijtimoiy pedagogika nuqtai nazaridan kompleks tarzda yetarlicha o'rganilmagan. Mazkur maqolada aynan shu ilmiy bo'shliqni to'ldirish, amaliy muammolarga ijtimoiy pedagogika nuqtai nazaridan yondashish hamda ularni bartaraf etish bo'yicha aniq taklif va tavsiyalar ishlab chiqish ko'zda tutilgan.

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot ishida zamonaviy ilmiy-uslubiy yondashuvlar va usullar majmuasidan foydalanildi:

- Qiyosiy-tahliliy usul** - O'zbekiston va xorijiy mamlakatlarning nogironligi bo'lgan shaxslarga ijtimoiy yordam ko'rsatish tizimlari, qonunchilik bazasi hamda amaliy tajribalari o'zaro solishtirildi. Xususan, Skandinaviya davlatlari, AQSH, Germaniya, Yaponiya, shuningdek, MDH davlatlari (Rossiya, Qozog'iston) tajribalari O'zbekiston amaliyoti bilan taqqoslandi.
- Statistik tahlil usuli** - rasmiy davlat hisobotlari va agentlik ma'lumotlarini qayta ishlash orqali sohadagi miqdoriy ko'rsatkichlar baholandi [11]. Ma'lumotlar dinamikada (2020-2025-yillar) o'rganilib, mavjud tendensiyalar aniqlandi.
- Tizimli yondashuv** - ijtimoiy integratsiya va tibbiy korreksiyalash jarayonlari o'zaro bog'liq holda, yaxlit tizim sifatida o'rganildi.
- Kontent-tahlil usuli** - amaldagi qonunchilik hujjatlari, ilmiy adabiyotlar, davlat dasturlari va hisobotlar tarkibiy hamda tematik jihatdan tahlil qilindi.
- Kuzatuv va intervyu usullari** - nogironligi bo'lgan shaxslar bilan ishlash bo'yicha amaliy faoliyat kuzatildi, ularning o'zlari, oila a'zolari, pedagoglar va ijtimoiy xodimlar bilan suhbatlar o'tkazildi.

### 1. Nogironligi bo'lgan shaxslarning demografik tahlili

O'zbekiston Respublikasi Ijtimoiy himoya milliy agentligi ma'lumotlariga ko'ra, 2025-yil 1-iyul holatiga mamlakat aholisining 2,7 foizini nogironligi bo'lgan shaxslar tashkil etadi [11]. Bu ko'rsatkich 1 million 58 ming nafar fuqaroni tashkil etib, shundan 173 ming nafari bolalardir.

Ko'rsatkich	2020 yil	2022 yil	2024 yil	2025 yil (1-iyul)	O'zgarish (2020-2025)
Nogironligi bo'lgan shaxslarning umumiy soni	982 000	1 010 000	1 045 000	1 058 000	+7,7%
Ularning aholi tarkibidagi ulushi	2,9%	2,8%	2,7%	2,7%	-0,2 p.p.
Nogironligi bo'lgan bolalar soni	157 000	163 000	169 000	173 000	+10,2%
1-guruh nogironligi bo'lganlar	92 000	94 500	97 200	98 500	+7,1%
2-guruh nogironligi bo'lganlar	523 000	536 000	552 000	558 000	+6,7%
3-guruh nogironligi bo'lganlar	367 000	379 500	395 800	401 500	+9,4%

Jadval ma'lumotlari shuni ko'rsatadiki, nogironligi bo'lgan shaxslarning mutlaq soni ortib bormoqda. Bu aholining umumiy o'sishi, aholining qarishi, shuningdek, nogironlikni aniqlash tizimining takomillashganligi bilan bog'liq.

Nogironlik guruhi	Soni	Ulushi
1-guruh	98 500	9,3%
2-guruh	558 000	52,7%
3-guruh	401 500	38,0%
<b>JAMI</b>	<b>1 058 000</b>	<b>100%</b>

Ijtimoiy nafaqalar toifalari kesimida esa 316 377 nafar nogironlik nafaqasi oluvchi hamda 169 232 nafar 18 yoshgacha bo'lgan nogiron bolalar nafaqasi oluvchi shaxslar mavjud [12].



## 2. Nogironlikni belgilash tizimidagi o'zgarishlar

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, so'nggi yillarda davlat siyosati natijasida nogironligi bo'lgan shaxslarni qo'llab-quvvatlash borasida sezilarli ijobiy o'zgarishlar yuz berdi. Xususan:

1. Mahallalarda ijtimoiy xodimlarning uyma-uy yurishlari natijasida 34,2 ming nafar holati rasman belgilangan fuqarolar aniqlanib, ularga nogironlik belgilandi <sup>[11]</sup>.
2. Nogironlikni belgilash jarayonlari yagona standartlar va raqamlashtirilgan tizim asosida amalga oshirilmogda. Yangi funksional yondashuv doirasida 32 036 nafar shaxs baholandi <sup>[11]</sup>.
3. TIEK tizimi qayta tashkil etilib, 33 ta viloyat komissiyasi tugatildi hamda tuman va shahar darajasidagi komissiyalar tarkibiga pediatriklar kiritildi. Masofaviy tartibda nogironlik belgilash imkoniyati 39 tadan 48 tagacha kengaytirildi <sup>[11]</sup>.

## 3. Reabilitatsiya va tibbiy korreksiyalash tahlili

Reabilitatsiya va tibbiy korreksiyalash sohasida ham ijobiy o'zgarishlar kuzatilmoqda:

Ko'rsatkich	2023 yil	2024 yil	2025 yil	O'zgarish (2023–2025)
Protez va reabilitatsiya vositalari bilan ta'minlanganlar	30 600	58 700	91 900	+200,3%
Kafolatlangan vositalar ro'yxati (turlar soni)	18	28	38	+20 ta
Vositalar olgan ish bilan ta'minlanganlar	-	-	7 300	-
Vositalar olgan ta'limga jalb etilganlar	-	-	5 000	-
Vositalar olgan adaptiv sportga jalb etilganlar	-	-	1 000	-

2025-yilda 91,9 ming shaxs protez va reabilitatsiya vositalari bilan ta'minlandi, bu 2023-yilga nisbatan 3 baravar ko'pdir. Kafolatlangan vositalar ro'yxati 18 tadan 38 tagacha kengaytirildi <sup>[11]</sup>.

## 4. Ijtimoiy integratsiya tahlili

Ijtimoiy integratsiya yo'nalishida quyidagi natijalarga erishildi:

Ko'rsatkich	Soni
“Imkoniyatlar olami” markazlari	30 dan ortiq
Inklyuziv ta'lim guruhleri	656
Inklyuziv ta'limga jalb qilingan bolalar	1 171
Kunduzgi parvarish guruhleri	458
“Ijtimoiy taksi” xizmatidan ro'yxatdan o'tganlar	678
daw.hima.uz platformasi orqali ishga joylashtirilganlar	14 000 (52%)

## TAHLIL VA NATIJALAR

O'tkazilgan tahlillar quyidagi asosiy muammolar mavjudligini ko'rsatdi:

1. **Inklyuziv ta'lim tizimining yetarli darajada rivojlanmaganligi.** 656 ta inklyuziv ta'lim guruhi 1 171 nafar bolani qamrab oladi, bu mamlakatdagi 173 ming nafar nogironligi bo'lgan bolalarning atigi 0,7 foizini tashkil etadi. Mavjud ehtiyojlarni qondirish uchun ushbu ko'rsatkich yetarli emas.
2. **Mutaxassis kadrlar yetishmasligi.** Surdopedagog, tiflopedagog, oligofrenopedagog, logoped, defektolog, psixolog va ijtimoiy pedagog kabi mutaxassislarning yetishmasligi jiddiy muammolardan biri bo'lib qolmoqda <sup>[9]</sup>.
3. **Reabilitatsiya markazlari tarmog'ining cheklanganligi.** Ayniqsa, qishloq va chekka hududlarda zamonaviy reabilitatsiya markazlarining yetishmasligi kuzatilmoqda.
4. **Jamiyatdagi stereotiplarning saqlanib qolganligi.** Nogironligi bo'lgan shaxslarga nisbatan noto'g'ri qarashlar, kamsitish va ijtimoiy ajratish holatlari hanuz uchrab turibdi.
5. **Moddiy-texnik bazaning yetarli emasligi.** Ko'plab ta'lim muassasalari, davlat idoralari va transport infrazuzilmasi nogironligi bo'lgan shaxslarning ehtiyojlariga to'liq moslashtirilmagan.

6. **Ma'lumotlar bazasining tarqoqligi.** Nogironligi bo'lgan shaxslar to'g'risidagi ma'lumotlar turli idoralar kesimida shakllantirilgan bo'lib, yagona integratsiyalashgan tizim mavjud emas.

#### Xorijiy tajriba tahlili

- **AQSH tajribasi.** 1990-yilda qabul qilingan "Americans with Disabilities Act" (ADA) nogironligi bo'lgan shaxslarga nisbatan kamsitishning barcha shakllarini taqiqlaydi. Shuningdek, "Individual ta'lim rejas" (IEP) tizimi samarali faoliyat yuritadi.
- **Germaniya tajribasi.** "Biopsixosozial yondashuv"ga asoslangan reabilitatsiya tizimi joriy etilgan bo'lib, reabilitatsiya jarayoni uzluksiz ravishda 2–5 yil davom etadi <sup>[4]</sup>.
- **Skandinaviya davlatlari tajribasi.** "Hayot sifatini ta'minlash" tamoyili asosida inklyuziv ta'lim tizimi keng joriy etilgan va nogironligi bo'lgan shaxslarning jamiyat hayotidagi to'laqonli ishtiroki ta'minlanadi.
- **Yaponiya tajribasi.** Har bir nogironligi bo'lgan shaxs uchun individual reabilitatsiya rejas ishlab chiqiladi hamda uning amalga oshirilishi muntazam monitoring qilinadi. Shuningdek, "Tayanch inson" tizimi samarali faoliyat yuritadi <sup>[5]</sup>.
- **MDH davlatlari tajribasi.** Rossiya Federatsiyasida nogironligi bo'lgan shaxslar uchun qulay infratuzilma yaratishga qaratilgan "Qulay muhit" davlat dasturi amalga oshirilgan.

#### XULOSA VA TAKLIFLAR

O'zbekistonda nogironligi bo'lgan shaxslarni ijtimoiy integratsiyalash va tibbiy korreksiyalash sohasida keng ko'lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. Raqamlashtirish jarayonlarining jadallashuvi, moliyalashtirish hajmining oshirilishi, xizmat turlarining kengaytirilishi hamda qonunchilik bazasining takomillashtirilishi natijasida muhim natijalarga erishildi. Shu bilan birga, sohani yanada rivojlantirish maqsadida quyidagi takliflarni ilgari surish mumkin:

1. **Inklyuziv ta'lim tizimini kengaytirish.** Barcha umumta'lim maktablarida maxsus pedagog kadrlar shtatini joriy etish hamda pedagogika oliy ta'lim muassasalarida ushbu mutaxassisliklar bo'yicha qabul kvotalarini oshirish.
2. **Reabilitatsiya xizmatlarini modernizatsiya qilish.** Har bir hududda zamonaviy jihozlar bilan ta'minlangan reabilitatsiya markazlari tarmog'ini kengaytirish va erta aralashuv dasturlarini (0–3 yosh) rivojlantirish.
3. **Ijtimoiy va kasbiy reabilitatsiyani kuchaytirish.** "daw.hima.uz" platformasi faoliyatini yanada kengaytirish hamda nogironligi bo'lgan shaxslarni ishga qabul qiluvchi ish beruvchilar uchun qo'shimcha soliq imtiyozlarini joriy etish.
4. **Jamiyatda inklyuziv madaniyatni shakllantirish.** Ommaviy axborot vositalari va ijtimoiy tarmoqlar orqali targ'ibot-tushuntirish ishlarini kuchaytirish, maktablarda "Tolerantlik va inklyuziya" mavzusidagi mashg'ulotlarni joriy etish.
5. **Ilmiy tadqiqotlarni qo'llab-quvvatlash.** Nogironlik va ijtimoiy integratsiya muammolarini o'rganishga qaratilgan ilmiy loyihalarni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash va grant dasturlarini kengaytirish.

Ushbu chora-tadbirlarning amalga oshirilishi nogironligi bo'lgan shaxslarning nafaqat tibbiy holatini yaxshilashga, balki ularning jamiyatning teng huquqli va faol a'zolari sifatida to'laqonli hayot kechirishlariga ham xizmat qiladi.

#### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. German Federal Ministry of Labour and Social Affairs. (2020). Rehabilitation and Participation of Persons with Disabilities in Germany.
2. Ismoilov, B.S. (2021). Nogironligi bo'lgan shaxslar davlat va jamiyat e'tiborida. O'zbekiston ko'zi ojizlar jamiyati.
3. Japanese Ministry of Health, Labour and Welfare. (2019). Annual Report on Government Measures for Persons with Disabilities.
4. Juraeva, M. (2024). persons with disabilities and its social analysis in new Uzbekistan. confrencea, 2, 38-43.
5. Juraeva, M. M. (2024). Integration of persons with disabilities into the flow of social relations in the conditions of new Uzbekistan. Journal of modern educational achievements, 10(10), 283-286.
6. Jurayeva, M. M. (2023). "Nogironlik va ijtimoiy transformatsiya". O'zbekiston falsafa jurnali.
7. Jurayeva, M. M. (2026, april). Social activism of persons with disabilities in the new Uzbekistan: philosophical foundations and practical processes. in International conference platform (No. 4, pp. 60-72).
8. Jurayeva, M. M. (2026, april). The issue of persons with disabilities from the point of view of the concept of human dignity. in International conference platform (No. 4, pp. 53-59).



9. Jurayeva, M., & Polatova, R. (2024). Maktabgacha ta'lim tashkilotida tarbiyalanuvchilarini maktabgacha ta'limga moslashtirishda kreativ yondashuv. *Вестник магистратуры*, (6-1 (153)), 18-20.
10. Jurayeva, M. Q., & Jurazoda, M. I. Q. (2022). Nutq texnikasi modulini o'qitishda innovatsion yondashuv metodlari. *Oriental renaissance: innovative, educational, natural and social sciences*, 2(3), 403-408.
11. Muhaydinovna, J. M. (2025). Boshlang'ich sinf o'quvchilarining ijtimoiy moslashuvini ta'minlashda kooperativ o'qitish va jamoaviy o'yinlar texnologiyasining ro'li. *Tadqiqotlar*, 75(3), 118-123.
12. Muxaydinovna, J. M. (2025). Nutqiy rivojlanishida kechikkan bolalar bilan ishlashda multimodal va interfaol ta'lim texnologiyalari. *Tadqiqotlar*, 74(2), 303-306.
13. Muxaydinovna, J. M. (2025). Sensor-integratsion yondashuv va multimodal metodlar orqali nutqiy rivojlanishni qo'llab-quvvatlash. *Образование наука и инновационные идеи в мире*, 82(4), 140-147.
14. Muxaydinovna, J. M. (2026). Nosog'lom ijtimoiy muhitning sog'lom bolalar ijtimoiylashuviga salbiy ta'siri. ta'lim innovatsiyasi va integratsiyasi, 61(1), 139-148.
15. Nuraliyeva, M.E., Almadanova, K.T., Abdulkarimov, A.Sh., Abdurasulova, S.A., & Mamayusupova, K.B. (2025). Prospects for organizing social assistance for children with disabilities in our country. *Медицина, педагогика и технология: теория и практика*, 3(2), 268-273.
16. Oliver, M. (1990). *The Politics of Disablement*. London: Macmillan.
17. Xaydarov, F.I. (2023). *Inklyuziv ta'limning nazariy va amaliy asoslari*. Toshkent: Fan nashriyoti.
18. O'zbekiston Respublikasi Ijtimoiy himoya milliy agentligi. (2025). \*2025-yil 1-iyul holatiga nogironligi bo'lgan shaxslar to'g'risidagi hisobot\*.
19. O'zbekiston Respublikasi Ijtimoiy himoya milliy agentligi. (2025). Ijtimoiy nafaqalar to'g'risida statistik ma'lumotlar.
20. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 15-oktyabrdagi "Nogironligi bo'lgan shaxslarni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4860-sonli qarori.
21. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 18-fevraldagi "Nogironligi bo'lgan shaxslarni ijtimoiy himoya qilish va ular uchun qulay shart-sharoitlar yaratish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-135-sonli qarori.
22. O'zbekiston Respublikasining "Nogironligi bo'lgan shaxslarning huquqlari to'g'risida"gi Qonuni. - O'RB-641-son, 2020-yil 15-oktyabr.
23. O'zbekiston Respublikasining "Nogironlar huquqlari to'g'risidagi konvensiyani (nyu-york, 2006-yil 13-dekabr) ratifikatsiya qilish haqida"gi qonuni, 2021-yil 7-iyun, O'RB-695-son.
24. Birlashgan Millatlar Tashkilotining Nogironlar huquqlari to'g'risidagi Konvensiyasini ratifikatsiya qilish haqida. - O'RB-695-son, 2021-yil 7-iyun.
25. O'zbekiston Respublikasi hukumat portal. "O'zbekistonda markaziy osiyo uchun noyob ijtimoiy himoya tizimi shakllandi", 2025-yil 18-iyul.
26. Toshkent tibbiyot akademiyasi. (2025). Imkoniyati cheklangan bolalar uchun psixologik va emotsional yordam ko'rsatish yo'llari.
27. Yangi O'zbekistonda nogironligi bo'lgan shaxslarni himoyasini ta'minlash istiqbollari. (2025). Zenodo.
28. Nogironligi bo'lgan shaxslarni ijtimoiy himoya qilish bo'yicha. (2025). Zenodo.
29. O'zbekiston Respublikasining "Nogironlar huquqlari to'g'risidagi konvensiyani (nyu-york, 2006-yil 13-dekabr) ratifikatsiya qilish haqida"gi qonuni, 2021-yil 7-iyun, o'rb-695-son.
30. Safarboyeva, S. B. Q. (2026). O'smirlarda uchraydigan psixologik muammolar. Mahalliy va xalqaro konferensiyalar platformasi, (5), 109-111.
31. Kayumov, B. Z. O., & Kodirova, Z. S. Q. (2026). The influence of the virtual world on the formation of destructive behavior in adolescents. *Science and Education*, 7(3), 426-429.
32. Kayumov, B. Z. O., & Shokirova, D. (2026, April). STUDY OF HUMAN MENTAL ACTIVITY. In *International Conference Platform* (No. 4, pp. 112-115).
33. Kayumov, B. Z. O., & Nurmanova, B. B. Q. (2026). Factors and causes of behavioral deviation in adolescents. *Science and Education*, 7(3), 534-537.
34. Kayumov, B. Z. O., & Boyturayeva, N. M. K. (2026). Online psychological consultation service: problems and solutions. *Science and Education*, 7(3), 527-533.
35. Qayumov, B. Z. O., & Rustamova, D. J. (2026). Causes of deviation in the education of school-age students. *Academic Journal of Science, Technology and Education*, 2(3), 101-103.
36. Kayumov, B. Z., & Olimjonova, N. S. (2026). The importance of role playing in preschool children. *Science and Education*, 7(3), 475-480.
37. Yaxyoxonovich, A. U. (2025, December). Bo'lajak o'qituvchilarda ijtimoiy intellektni rivojlantirishda tanqidiy fikrlashning roli. In *Partner conferences of the International Scientific Journal Research Focus* (Vol. 1, No. 1, pp. 1129-1134).
38. Uktamov, M. M. O. (2026). Technologies for educating students using artificial intelligence. *European Review of Contemporary Arts and Humanities*, 2(4), 40-43.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
  - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
  - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
  - 13.00.03 Maxsus pedagogika
  - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
  - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
  - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
  - 13.00.07 Ta'limda menejment
  - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
  - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
  - 07.00.00 Tarix fanlari
  - 19.00.00 Psixologiya fanlari
  - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
  - 02.00.00 Kimyo fanlari
  - 03.00.00 Biologiya fanlari
  - 09.00.00 Falsafa fanlari
  - 10.00.00 Filologiya fanlari
  - 11.00.00 Geografiya fanlari



# MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

**Mas'ul muharrir:** Ramzidin Ashurov

**Ingliz tili muharriri:** Murod Xoliyorov

**Musahhih:** Alibek Zokirov

**Sahifalovchi va dizayner:** Iskandar Islomov

---

**2026. №5(5)**

---

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.  
**Litsenziya raqami: № 136361.**

**Manzirimiz:** Toshkent shahar, Yunusobod tumani  
19-mavze, 17-uy.